

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» «Scientific journal of the Fergana State University» jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

O.Shukurov	
Neym neologizmlar xususida	244
G'.Abduvaxobov	
Amaliy tilshunoslik: elektron lug'atlar yaratish konsepsiysi.....	250
N.Maxmudova	
Ornitonimlarning qiyosiy tahlili: o'zbek va ingliz tillarida qush nomlari bilan bog'liq birliklarning ishlatalishi.....	257
H.Davlatova	
Bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri.....	262
V.Abdurahmonov	
Alternativ so'roq gaplarning uslubiy-semantik tasnifi.....	267
F.Temirova	
Badiiy diskurs va diskursiv tahlil	271
A.Mirzaev	
Ko`p tillilik va uning yangi tilni o`rganishga ta'siri	276

PEDAGOGIKA

B.Khodjaev, B.Baydjanov	
Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning pedagogik asoslari va muammolari.....	280

ILMIY AXBOROT

M.Abdukamolova	
Yangi O'zbekiston: xotin-qizlar maqomi	288
P.Ro'ziboeva	
"Gilam paypoq" va "Onamning yolg'onlari" hikoyalarida ona obrazining o'xhash va farqli jihatlari	292
Sh.Uralova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida idish-tovoq va oshxonanomlari tadqiqot obyekti sifatida.....	295

FANIMIZ FIDOVYLARI

Ilimga baxshida umr	302
Sermaksul ilmiy ijod	303
Bibliografiya	305

ALTERNATIV SO'ROQ GAPLARNING USLUBIY-SEMANTIK TASNIFI**МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ И СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ АЛЬТЕРНАТИВНЫХ ВОПРОСОВ****METHODOLOGICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF ALTERNATIVE QUESTIONS****Abdurahmonov Vohidjon Abdusattorovich¹****¹Abdurahmonov Vohidjon Abdusattorovich** – FarDU tadqiqotchisi**Аннотация**

Mazkur maqolada so'roq gaplarning bir turi hisoblangan alternativ so'roq gaplarning semantik-struktur belgilarini yoritish bilan birga, ularning mazmuniy va uslubiy jihatdan tasnifi asoslari ko'rsatib o'tilgan. Mazmuniy jihatdan alternativ so'roq gaplar turlicha bo'lishi kuzatiladi. Qo'yilayotgan so'roqning mavzusi va mazmuniy xarakteriga ko'ra alternativ so'roq gaplarni quyidagi turlarga bo'lib tasnif qilindi: oddiy (emotsional bo'yoqqa ega bo'lman) alternativ so'roq gaplar, fikriy murakkablashgan (hissiy-ta'siri, badiiy-estetik va stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan) alternativ so'roq gaplar, oddiy alternativ so'roq gaplarda so'zlovchining ichki his tuyg'ulari ifoda etilmaydi va chuqurlashtirilmaydi. Ularni uslubiy jihatdan neytral shakllangan gaplar sifatida ham baholash mumkin. Alternativ so'roqning xarakterli jihatni, so'roq gaplarning boshqa turlaridan farqli o'laroq, alternativ so'roqqa "ha", yoki "yo'q", deb javob berib bo'lmaydi. Alternativ so'roq gaplar tahlilida shunga alohida e'tibor qaratish lozimki, ularda aniq kontekst yoki nutqiy vaziyatning aniqligi, kommunikativ shart-sharoit, nutq qatnashchilari miqdori kabilar tadqiqotchining diqqat markazida bo'lishi zarur, chunki mazkur jihatlar alternativ so'roq gaplarning shakllanishi, mazmuni, badiiy-estetik tomonlari va uslubiy jihatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Аннотация

В данной статье описываются семантические и структурные особенности альтернативных вопросительных предложений, являющихся разновидностью вопросительных местоимений, а также основы их семантико-методической классификации. Альтернативные вопросительные местоимения различаются по содержанию. В зависимости от темы и смысловой природы вопроса альтернативные вопросительные предложения подразделялись на следующие виды: простые (без эмоциональной окраски) альтернативные вопросительные предложения, интеллектуально сложные (эмоциональные) с мистической, художественно-эстетической и стилистической окраской) альтернативные вопросы. В простых альтернативных вопросительных предложениях не выражены и углублены внутренние переживания говорящего. Их также можно оценить как методологически нейтральные образованные предложения. Характерной особенностью альтернативного вопроса является то, что, в отличие от других типов вопросительных предложений, на альтернативный вопрос нельзя ответить «да» или «нет». При анализе альтернативных анкет следует обратить особое внимание на то, что в них следует ориентироваться на точность конкретного контекста или речевой ситуации, условия общения, количество участников, так как эти аспекты оказывают влияние на художественно-эстетические аспекты, и методологические аспекты.

Abstract

This article describes the semantic and structural features of alternative interrogative pronouns, which are a type of interrogative pronouns, as well as the basics of their semantic and methodological classification. Alternative interrogative pronouns vary in content. Depending on the topic and semantic nature of the question, alternative interrogative sentences were classified into the following types: simple (without emotional coloring) alternative interrogative sentences, intellectually complex (emotional) with mystical, artistic-aesthetic, and stylistic color) alternative interrogative sentences, in simple alternative interrogative sentences the inner feelings of the speaker are not expressed and deepened. They can also be assessed as methodologically neutral formed sentences. The characteristic feature of the alternative question is that, unlike other types of interrogative pronouns, the alternative question cannot be answered "yes" or "no". In the analysis of alternative questionnaires, special attention should be paid to the fact that the researcher should focus on the specific context or speech situation, communicative conditions, the number of participants, as these aspects , has an impact on artistic and aesthetic aspects and methodological aspects.

Калит сўзлар: lingvistika, alternativ so'roq, semantik-struktur aspekt, punktuatsiya, prosodika, grammatika, ritorika, kontekst, emotsional-estetik, ruhiy-psixologik xarakter, semantika.

Ключевые слова: языкоznание, альтернативное вопрошение, семантико-структурный аспект, пунктуация, просодика, грамматика, риторика, контекст, эмоционально-эстетический, психопсихологический характер, семантика.

Keywords: Linguistics, alternative questions, semantic-structural aspect, punctuation, prosody, grammar, rhetoric, context, emotional-aesthetic, psycho-psychological character, semantics.

KIRISH

So'roq kategoriyasi mantiqiy kategoriya sifatida tilimizda so'roq gaplar vositasida ifoda etiladi. An'anaviy tilshunoslikda asosiy diqqat so'roq kategoriyasining semantik-struktur aspektida punktuatsion, prosodik va grammaatik belgilariga qaratildi, ya'ni so'roq gaplarning semantik- struktur belgilariga ko'ra tadqiq etildi:[1,43-57]

- a) punktatsion belgi – gap oxirida so'roq belgisining qo'llanilishi;
- b) prosodik belgi – gaplarda so'roq ohangining mavjudligi;
- v) grammaatik belgi – so'roq gaplarda so'z tartibi, so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ishtirot etishi.

So'roq kategoriyasining mantiqan so'roq gaplar orqali ifodalanishi va so'roq gaplarga semantik-struktur yondashuvda yuqoridagi uch belgi lingvistik, jumladan, sintaktik tadqiqotlarning asosini tashkil etdi. So'roq gap orqali so'roq mazmunini ifodalanishning lingvistik tabiatiga ko'ra sof so'roq va ritorik so'roq, ko'rinishlarida ifoda etilishi o'zbek tilshunosligida ham juda ko'p tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'tgan asrning 60-70 yillarda semantik-struktur aspektida atroficha tadqiq etilgan. Bundan tashqari alternativ so'roq masalasi ham borki, bu masala hozircha o'zbek tilshunosligida o'zining yetarli bahosini olmagan va atroficha o'rganiilmagan, degan hulosaga kelishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Alternativ so'roq gaplarni o'rganish masalasi birinchi marta M.Abdupattoyev tomonidan o'rtaga tashlandi va alternativ so'roq matnni shakllantiruvchi vosita sifatida baholandi[2,304-308]. Alternativ so'roqning asosiy belgisi so'zlovchi tomonidan yonma-yon qo'yilayotgan ikkita so'roqning tinglovchi tomonidan faqat bittasiga javob talab etilishiga asoslanadi. Bundan tashqari alternativ so'roqda tinglovchining javob berishi uchun bir nechta variantlar majud bo'ladi Masalan:

Toshkentga bugun jo'naysizmi yoki ertagacha kutib turasizmi?

Bugun Marat navbatchimi, Rustammi yo Alisherga tayinladingizmi?

Yuqoridagi kabi gaplarda tinglovchi qator qo'yilgan so'roqlarning faqat bittasiga javob bersa so'zlovchi uchun kifoya qiladi. Zero, alternativ so'roq gaplarning lingvistik tabiat shuni taqozo etadi. Bundan tashqari, alternativ so'roqning yana bir xarakterli jihat shundaki, so'roq gaplarning boshqa turlaridan farqli o'laroq, alternativ so'roqqa "ha", yoki "yo'q", deb javob berib bo'lmaydi. Bunday javob savol beruvchini qanoatlantirmaydi. Kontekstda ham javobning asosiy mazmuni oydinlashmaydi.

Alternativ so'roq gaplar tahlilida shunga alohida e'tibor qaratish lozimki, ularda aniq kontekst yoki nutqiy vaziyatning aniqligi, kommunikativ shart-sharoit, nutq qatnashchilari miqdori kabilar tadqiqotchining diqqat markazida bo'lishi zarur, chunki mazkur jihatlar alternativ so'roq gaplarning shakllanishi, mazmuni, badiiy-estetik tomonlari va uslubiy jihatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, nutq ishtirokchilari ikkitadan kam bo'lsa (so'zlovchining o'zi bilan o'zining muloqoti, ya'ni ichki dialogida), so'roq avtokvesitiv xarakterda bo'ladi, ya'ni ichki dialog muallifining o'zi ham ikki yoki undan ortiq so'roqning faqat bittasiga javob izlaydi. Ayniqsa, asar qahramonlarining kuchli ruhiy-psixologik holatlarining yoritilishida bunday gaplar alohida o'rincutadi:

Endi nima qilsin? Borib tiz cho'kib kechirim so'rasinmi yoki muammoni pul bilan hal qilsinmi?

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Misoldan ko'rilib turganidek, nutq muallifining ichki dialogida qo'yilayotgan so'roq asosida o'z oldida turgan muammoni yechish uchun yo'l izlaydi. O'z savollariga bitta yechim, ya'ni bitta javob izlaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, nutqiy vaziyat va kommunikativ muloqot ana shunday tarzda reallashadi. Bunda qo'yilayotgan alternativ so'roqlar so'roq mazmunidan tashqari emotsiyonal-estetik va stilistik vazifa ham bajaradi. Bunday holatlarda so'roqning badiiy yoki ilmiy jihatdan to'g'ri shakllantirilishi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham shakllantirilgan so'roq ortiqcha tavtologiyalardan holi, fikriy-mazmuniy jihatdan aniq bo'lishi yoki o'zida logik va lisoniy mushtaraklikni aks ettirishi, shu bilan birga noaniq (nutqiy vaziyat talab etmaydigan) ma'lumotlarni aks ettirmasligi maqsadga muvofiqdir.

TILSHUNOSLIK

Alternativ so'roq gaplaring yana bir belgisi shuki, ularda faqat bir-birini taqozo etadigan, biri-ikkinchisidan kelib chiqadigan tushunchalar va xuddi shunday voqelik ifoda etiladi[3,133-137]. Masalan ularda hech qachon Kattami yoki qorami? tarzidagi so'roq qo'yilmaydi. Demak, alternativ so'roq gaplarning shakllanishi va alternativ savollarning ifoda etilishida logik izchilllik birinchi planda turadi.

Mazmuniy jihatdan alternativ so'roq gaplar turlicha bo'lishi kuzatiladi. Qo'yilayotgan so'roqning mavzusi va mazmuniy xarakteriga ko'ra alternativ so'roq gaplarni quyidagi turlarga bo'lib tasnif qilishimiz mumkin:

Oddiy (emotsional bo'yoqqa ega bo'lмаган) alternativ so'roq gaplar.

2. Fikriy murakkablashgan (hissiy-tasiri, badiiy-estetik va stilistik bo'yoqqa ega bo'lган) alternativ so'roq gaplar.

Oddiy alternativ so'roq gaplarda so'zlovchining ichki his tuyg'ulari ifoda etilmaydi va chuqurlashtirilmaydi. Ularni uslubiy jihatdan neytral shakllangan gaplar sifatida ham baholash mumkin. Masalan, Ketaszimi, qolasizmi? tipidagi gaplarda emotsionallik mavjud emas, qo'shimcha mazmuniy ottenkalar ham kuzatilmaydi. Bunga ko'ra alternativ so'roq gaplarni ikki turga:

a) fikrni to'ldiruvchi alternativ so'roq gaplar;

b) fikrni aniqlashtiruvchi (konkretnashtiruvchi) alternativ so'roq gaplarga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

Fikrni to'ldiruvchi alternativ so'roq gaplarda berilayotgan va ketma ket ifoda etilayotgan so'roqlar fikran bir birini to'ldiradi, izohlaydi va so'roq mazmunini kengaytiradi. Masalan:

Said Buxoroga boradimi yoki Nigorani bu yerga olib kelamizmi?

Yoki

Siz fakultetning qaysi yo'nalishiga hujjat topshirmoqchisiz, ximiya yo'nalishigami yoki biologiya yo'nalishigami?

Misollardan anglashilib turganidek, gaplarda qo'yilayotgan so'roqlar mazmunan bir-birini to'ldiradi, bir-birini taqozo etadi. Shunday ifoda orqali nutq muallifi ko'zlangan maqsadiga to'liq erishadi.

Fikrni aniqlashtiruvchi alternativ so'roq gaplarda esa yonma-yon qo'yilayotgan so'roqlar miqdor jihatdan qancha bo'lishidan qat'iy nazar, ular bir-biriga mazmunan aniqlik kiritadi, so'roqni konkrettrashtirish – aniq va lo'nda fikr ifoda etish uchun qo'llaniladi. Masalan:

Tanlagan qizing bundayroqmi yo juda chiroylimi?

Yoki

Haliyam o'ylanyapsizmi yoki aniq bir to'xtamga keldingizmi?

Misollar mazmuniga diqqat qilinsa, ularda bir xil holatni, ya'ni birinchi o'rinda berilgan so'roq keyin keltirilgan so'roq vorqali yanada aniqlashtirilgani, savolning birmuncha aniqlashtirilganini kuzatishimiz mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday holatlarda so'zlovchi tomonidan keyingi so'roqqa alohida urg'u beriladi, tinglovchi tomonidan esa aksariyat hollarda keyingi so'roqqa muqobil javob beriladi.

Fikriy murakkablashgan alternativ so'roq gaplarda esa sof so'roq mazmunidan tashqari so'zlovchining emotsional-ekspressiv munosabatlari ham ifoda etilgan bo'ladi. Real voqelik va obyektiv borliq bunday gaplarda turli mazmuniy planlarda, xilma-xil emotsional-kommunikativ maqsadlarda ifoda etiladi. Shuning uchun ham bunday gaplarda emotsional-ekspressiv ifoda turlicha bo'lishi tabiiy bir hol.

Bu esa, o'z navbatida alternativ so'roq ifodasining turli ko'rinishlarini keltirib chiqaradi. Biz quyida bu turdagи gaplarning emotsiya ifoda etish darajasi va ruhiy psixologik xarakteriga ko'ra ikki turiga to'xtalib o'tmoqchimiz:

1.So'roq-talab tipidagi alternativ so'roq gaplar.

2.So'roq-maslahat tipidagi alternativ so'roq gaplar.

So'roq-talab tipidagi alternativ so'roq gaplarda emotsional bo'yoqdotlik va ekspressivlik yuqori darajada ifoda etiladi. So'zlovchining kuchli ruhiy holati va tinglovchiga ta'sir etish funksiyasi kuchli bo'ladi. Talab semasi kuchaytiriladi. Gap qo'shimcha stilistik bo'yoqlar bilan boyitilgan bo'ladi. Masalan:

Chiqib ketaszimi uydan yo biz chiqib ketaylikmi?

Qizingni o'g'limga berasanmi, bermaysanmi?

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, berilgan misollardan ko'rindiki, bunday alternativ so'roq gaplarda so'zlovchining kuchli emotsiyasi, ruhiy-psixologik holati aks etadi. Bunda hatto so'roq mazmuni ikkinchi darajali qiymat kasb etib, talab va tahdid birinchi o'ringa chiqadi.

So'roq-maslahat tipidagi alternativ so'roq gaplarda ham stilistik bo'yoqdorlik mavjud bo'lib, yonmayon qo'llanilgan so'roqlar bunday turli ruhiy-psixologik holatlar bilan bog'liq maslahat, iltimos, o'tinch mazmunini yuzaga chiqishi uchun xizmat qiladi:

Siz hozir ketasizmi yo ozgina kutib tura olasizmi?

Mening portretimni chizib bera olasizmi, yoki keyinroq kelayinmi?

Keltirilgan gaplarda ham so'roq mazmuni yetakchi bo'lmay, ularda maslahat, iltimos mazmuni emotsiyonal va stilistik bo'yoqlar orqali ifoda etilganini kuzatishimiz mumkin.

Umuman, alternativ so'roq gaplarni o'rganish tilimizning boy ifoda imkoniyatlari cheksizligini, ona tilimizning sintaktik qurilishi mukammal shakllanganligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Стрелцов А.А. Три подхода к категории вопросительности. Вестник ПНИПУ. Проблемы языкоznания и педагогики № 3, 2017. – С 43-57. (Streltsov A.A. Three approaches to the category of questioning. Bulletin of PNRPU. Problems of linguistics and pedagogy)
2. Abdupattoyev M.T. Alternativ so'roq gaplar matnni shakllantiruvchi vosita sifatida. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2020 yil 5-son, 304-308 betlar. (Abdupattoyev M.T. Alternative interrogative pronouns as a means of text formation. NamSU scientific bulletin)
3. Abdupattoyev M.T O'zbek tilining poetik sintaksisi.(Monografiya) Farg'ona. "Classik" 2021, 133-137 betlar. (Abdupattoyev MT Poetic syntax of the Uzbek language. (Monograph) Fergana)

(Taqrizchi: D.Yuldasheva – Filologiya fanlari nomzodi dotsent)